

O'QITUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI IJODIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODLARI

Xudoynazarova Zulayho Sohibnazarovna

Guliston davlat universiteti.

xudoynazrovazulayho@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini ijodiy yondashuv asosida rivojlantirishning samarali yo'llari tahlil qilingan. Jumladan, muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, keys-metod (aniq vaziyatlarni tahlil qilish), novatorlik faoliyati hamda ishbilarmonlik va rolli o'yinlar kabi metodlarning pedagogik imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi aqliy hujum, sinektika, morfologik tahlil, fokal obyektlar usuli, "oltita tafakkur shlyapalari" texnikasi, IVYN (ixtirochilik vazifalarini yechish nazariyasi) va boshqa innovatsion yondashuvlarning bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlash jarayonida ularning ijodiy hamda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga amaliy xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Muammoli ta'lim usuli, Loyihaviy faoliyat usuli, Keys usuli, Novator usuli, Ishbilarmonlik va rolli o'yinlar usuli, aqliy hujum, sinektika, morfologik tahlil.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация. В данной статье рассмотрены пути развития исследовательских способностей будущих учителей на основе творческого подхода. В частности, обоснованы педагогические возможности таких эффективных методов, как проблемное обучение, проектная деятельность, кейс-метод (анализ конкретных ситуаций), новаторская деятельность, а также методы деловых и ролевых игр. Кроме того, раскрыта роль тренингов, направленных на развитие креативности, включая мозговой штурм, синектику, морфологический анализ, метод фокальных объектов, метод «шести шляп мышления», ТРИЗ (теория решения изобретательских задач) и другие инновационные технологии, в формировании и развитии исследовательских способностей будущих педагогов. Результаты исследования могут быть использованы в процессе профессиональной подготовки будущих учителей для совершенствования их исследовательских и творческих компетенций.

Ключевые слова. Метод проблемного обучения, метод проектной деятельности, кейс-метод, инновационный метод, метод деловых и ролевых игр, мозговой штурм, синектика, морфологический анализ.

METHODS FOR DEVELOPING TEACHERS' RESEARCH COMPETENCE BASED ON A CREATIVE APPROACH

Annotation. This article examines the ways of developing the research abilities of future teachers through a creative approach. In particular, it substantiates the pedagogical

effectiveness of such methods as problem-based learning, project-based activities, the case study method (analysis of specific situations), innovative activities, and business and role-playing games. Furthermore, the article highlights the pedagogical potential of creativity-oriented training techniques, including brainstorming, synectics, morphological analysis, the focal objects method, the Six Thinking Hats technique, TRIZ (Theory of Inventive Problem Solving), and other innovative methods in fostering the research abilities of prospective teachers. The findings of the study contribute to the development of research and creative competencies in the process of professional teacher education.

Keywords. *Problem-based learning method, project-based learning method, case method, innovative method, business and role-playing games method, brainstorming, synectics, morphological analysis.*

KIRISH

Bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy yondashuvga tayangan holda tadqiqotchilik qobiliyatini shakllantirish ularning ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqotchilik tafakkurini rivojlantirish hamda tadqiqotchilik kompetensiyalarini tarkib toptirishga xizmat qiluvchi maxsus pedagogik metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Mazkur metodlar nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyatning uzviy bog'liqligini ta'minlashi, talabalarning bilishga bo'lgan qiziqishi va faolligini kuchaytirishi, shuningdek, o'zini o'zi rivojlantirish va kasbiy kamolot uchun qulay shart-sharoit yaratishi lozim.

METODOLOGIYA

Psixologik-pedagogik manbalar hamda ta'lim amaliyoti tahlili bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik qobiliyatini ijodiy yondashuv asosida rivojlantirishga xizmat qiluvchi bir qator samarali usullarni aniqlash imkonini beradi.

Shunday usullardan biri muammoli ta'lim bo'lib, u bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu metod talabalardan mustaqil fikrlashni, muammoning yechimini izlashni, mavjud bilim va tajribalarni safarbar etishni hamda yangi g'oyalarni ilgari surishni talab etadigan muammoli vaziyatlarni tashkil etishga asoslanadi. Bunday vaziyatlar ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar va pedagogik amaliyot jarayonida yaratilishi mumkin. Muammoli ta'lim talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini faollashtiradi, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, ilmiy farazlarni ilgari surish hamda noan'anaviy yechimlarni topish ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Muammoli ma'ruzalar an'anaviylardan shunisi bilan farq qiladiki, yangi bilimlar "kashf etilishi" kerak bo'lgan noma'lum sifatida kiritiladi. O'qituvchi muammoli vaziyatni yaratadi, talabalarni yechimlarni izlashga undaydi, ularni bosqichma-bosqich kerakli natijaga olib boradi. Bunday ma'ruza davomida bo'lajak o'qituvchilar nafaqat ma'lumotni qabul qiladilar, balki ilmiy tadqiqotlarda faol ishtirok etadilar, tadqiqotchilik tafakkurini rivojlantiradilar.

Muammoli seminarlar va amaliy mashg'ulotlar talabalar tomonidan tadqiqotchilik ko'nikmalaridan foydalanishni talab qiladigan muammoli vazifalarni bajarish asosida tuziladi. Bularga pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, pedagogik muammolarning yechimlarini ishlab chiqish va asoslash, innovatsion ta'lim texnologiyalarini loyihalash, pedagogik jarayonlar va hodisalarni modellashtirish vazifalari kirishi mumkin.

Loyihaviy faoliyat bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim usuli hisoblanadi. Bu talabalar tomonidan tadqiqotga yo'naltirilgan loyihalarni mustaqil ishlab chiqish va amalga oshirishni ko'zda tutadi. Loyihaviy faoliyat o'quv fanlari doirasida ham, darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham amalga oshirilishi mumkin. Bu muammoni aniqlash, maqsad va vazifalarni shakllantirish, tadbirlarni rejalashtirish, ma'lumotlarni qidirish va tahlil qilish, tajribalar o'tkazish, natijalarni qayta ishlash va sharhlash, loyihaviy faoliyat mahsulotini taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotchilik loyihalari individual yoki guruhli, qisqa yoki uzoq muddatli, bita fan doirasida yoki fanlararo bo'lishi mumkin. Ular ta'limning nazariy va amaliy muammolarini hal qilishga, innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishga, o'quv materiallarini yaratishga va pedagogik tajribalar o'tkazishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Fan va amaliyotning turli sohalaridagi bilimlarni integratsiyalaydigan, pedagogik voqelik haqida yaxlit tushunchani shakllantirishga yordam beradigan va tizimli fikrlashni rivojlantiradigan fanlararo loyihalar alohida ahamiyatga ega. Bunday loyihalar pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, informatika, madaniyatshunoslik va boshqa fanlar kesishmasida amalga oshirilishi mumkin.

Keys usul (muayyan vaziyatlarni tahlil qilish usuli) bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi. Ushbu usul tadqiqotchilik ko'nikmalaridan foydalanishni talab qiladigan real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va hal qilishni ko'zda tutadi. Keyslar matn tavsifi, videoyozuv yoki multimedia taqdimoti shaklida taqdim etilishi mumkin. Ularda pedagogik muammo, uning yuzaga kelish shartlari va sharoitlari, o'quv jarayoni ishtirokchilarining harakatlari to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

Keyslar bilan ishlash bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi: vaziyat bilan tanishish, muammoni aniqlash, mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish, yetishmayotgan ma'lumotlarni topish, mumkin bo'lgan yechimlarni yaratish, muqobillarni baholash, maqbul yechimni tanlash, harakatlar rejasini ishlab chiqish va natijalarni taqdim etish va muhokama qilish. Bunday ish jarayonida bo'lajak o'qituvchilar tahliliy, loyihaviy, aloqa va reflektiv ko'nikmalarni rivojlantiradilar, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llashni o'rganadilar va nostandart vaziyatlarda asosli qarorlar qabul qiladilar.

Ishbilarmonlik va rolli o'yinlar – bu bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan faol o'qitish usullaridir. Ular real pedagogik vaziyatlarni modellashtiradi, bu ularni hal qilishda tadqiqotchilik yondashuvini talab qiladi. O'yin davomida talabalar turli rollarni bajaradilar (o'qituvchi, talaba, ota-ona, ma'mur va h.k), bu ularga muammoga turli nuqtayi nazardan qarashga, pedagogik voqelik haqidagi tushunchalarini kengaytirishga, empatiya va bag'rikenglikni rivojlantirishga imkon beradi.

Ishbilarmonlik o'yinlari turli xil pedagogik vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi mumkin: o'quv jarayonini loyihalash, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish, ziddiyatli vaziyatlarni tahlil qilish va bartaraf etish, ota-onalar va hamkasblar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil etish. Ular tadqiqot tafakkurini rivojlantirishga, vaziyatni tahlil qilish, muammolarni aniqlash, g'oyalarni yaratish, qarorlar qabul qilish va ularning oqibatlarini bashorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Ijodkorlik bo'yicha treninglar bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini, ularning yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatini rivojlantirishga va nostandart kasbiy

muammolarni hal qilishga qaratilgan. Ular ijodiy faoliyatni rag'batlantiradigan, tasavvurni, fikrlashning moslashuvchanligi va o'ziga xosligini, assotsiatsiyalash va kombinatsiyalash qobiliyatini rivojlantiradigan mashqlar va vazifalar majmuini o'z ichiga oladi.

Ijodkorlik bo'yicha treninglar aqliy hujum, sinektika, morfologik tahlil, fokal obyektlar usuli, oltita tafakkur shlyapalari usuli, IVYN (ixtirochilik vazifalarini yechish nazariyasi) va boshqa shu kabi usullarni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu usullar fikrlash stereotiplarini yengishga, divergent fikrlashni rivojlantirishga, muammoni turli tomonlardan ko'rish, ko'plab yechimlarni topish va eng yaxshisini tanlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Novator o'qituvchilarning mahorat darslari bo'ladak o'qituvchilarda tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi. Ular talabalarga innovatsion pedagogik tajriba bilan tanishish, ilmiy-tadqiqot yondashuvining o'quv amaliyotida qo'llanilishini ko'rish, real sharoitda qo'llaniladigan pedagogik tadqiqot usullari va texnologiyalari haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

Mahorat darslarini oliygohning tajribali o'qituvchilari ham, pedagogik innovatsiyalar sohasida yutuqlarga ega bo'lgan amaliyotchi o'qituvchilar ham o'tkazishlari mumkin. Ular pedagogik faoliyatning turli jihatlariga bag'ishlanishi mumkin: mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish va rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish.

O'quvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlari (ITI) bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi va ularning tadqiqotchilik qobiliyatini tarbiyalashning samarali usuli hisoblanadi. U ilmiy bilim usullarini o'zlashtirish, tadqiqot tajribasini egallash va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatning turli shakllari va turlarini o'z ichiga oladi.

Ilmiy-tadqiqot ishlari o'quv jarayonining bir qismi sifatida (sinfda tadqiqot vazifalarini bajarish, insholar, ma'ruzalar, kurs ishlari va yakuniy malakaviy ishlarni tayyorlash) va darsdan tashqari mashg'ulotlar davomida (ilmiy

to'garaklarda, muammoli guruhlarda, ilmiy konferensiyalarda, ilmiy loyihalarda ishtirok etish, tanlovlar, tadqiqot natijalarini e'lon qilish) amalga oshirilishi mumkin.

Kafedralar, laboratoriyalar va ilmiy markazlar tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarda talabalarning ishtiroki alohida ahamiyatga ega. Bu bo'lajak o'qituvchilarga haqiqiy ilmiy faoliyatga qo'shilish, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va usullarini o'zlashtirish, tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqotchilikka yo'nalgan pedagogik amaliyot ham bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi. Bu nafaqat kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirish, balki mini-tadqiqotlar o'tkazish, innovatsion usul va texnologiyalarni sinovdan o'tkazish, pedagogik tajribani tahlil qilish va umumlashtirishni ham ko'zda tutadi.

XULOSA

Pedagogik amaliyot davomida talabalar turli xil tadqiqot vazifalarini bajarishlari mumkin: ta'lim jarayonining xususiyatlarini o'rganish, talabalarning rivojlanish darajasini tashxislash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda darslarni loyihalash va o'tkazish, mualliflik usullarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish, pedagogik loyihalarni yaratish va amalga oshirish.

Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarga nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan birlashtirish, ta'limning real muammolarini ko'rish, muayyan sharoitlarda tadqiqot usullarini sinab ko'rish va ilmiy tadqiqotlar uchun empirik material olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Baydjanov B. X. et al. Bo'lajak o'qituvchilarning loyihalash kompetentligini shakllantirish //Prospects for innovative technologies in science and education. – 2025. – T. 2. – №. 6. – C. 30-34.
2. Ayxodjaeva M. O'quvchilarni o'rganishga o'rgatish kerak: "Boshlang'ich ta'limda integratsiyaviy-innovatsion yondashuvlar" mavzusida o'tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2019 yil 6 may: TDPU, 2019. – 12 b.
3. Xudoynazrova Z. S. Kichik yoshdagi o'quvchilarda ijtimoiy ongini shakllantirishda loyiha asosidagi o'qitish //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-1 (129). – с. 692-696.

4. Oxunov I.A. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy ongini rivojlantirishning pedagogik shartlari, Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил № 3), ISSN 2181-1709 (P), 93-96 b.
5. Xudoynazarova Z. Innovative approaches to the development of communicative competence in students //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 9. – С. 128-131.
6. Xudoynazarova Z. Development of communicative competence: problems and solutions //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 9. – С. 195-199.
7. Ruzimova I. X. Bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi //Inter education & global study. – 2024. – №. 9, 31-40.
8. Nafasov G., Xudoyqulov R., Usmonov N. Developing logical thinking skills in mathematics teachers through digital technologies //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 5 Part 2. – С. 229-233.